

## **SHIMOLIY AMERIKADAGI INGLIZ KOLONIYALARI TARIXI.**

**Dushanova Feruza Mamatkulovna**

*Samarqand Davlat Chet tillar institute Qo'shma ta'lif dasturlari fakulteti*

*Qo'shma ta'lif dasturlari kafedrasasi o'qituvchisi*

[feruzadushanova3@gmail.com](mailto:feruzadushanova3@gmail.com)

+998901034303

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Shimoliy Amerikadagi dastlabki ingliz koloniyalari tarixiga bag'ishlanib, Amerika Qo'shma Shtatlari mustaqillikka erishgan sanagacha inglizlar tomonidan koloniyalarga asos solinish yillari hamda tarixiy voqealar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, quyidagi maqolada 13 ta asosiy shtatlar tarixiy davri haqida ko'nikma hosil qilishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Virjiniya, Nyu-York, Massachusetts, Nyu-Jersi, Karolina, Merilend, Konnektikut, Yangi Plimut, Delaver, Nyu-Gempshir, Nyu-Xeyven, 1607-yil, 1776-yil.

### **Kirish**

Shimoliy Amerika tarixi juda boy va rang-barangdir. Uning hududida turli qabilalar, masalan, azteklar, mayalar, inklar va boshqa ko'plab xalqlar yashagan.

Bo'lajak Amerika Qo'shma Shtatlarining kolonial davr tarixi – bu taxminan 16 ta koloniya hamda ikki birlashgan koloniylar tarixidir.

Shimoliy Amerikadagi ilk ingliz koloniyalari tarixi 1607-yilda tashkil topgan Virjiniya koloniyasidan boshlanadi. Bu koloniya eng birinchi inglizlar tomonidan barpo etilgan mustamlaka bo'lib, Jaymstaun shahrida joylashgan.

Virjiniya koloniyasi oltin izlab topish uchun ingliz davlati tashabbusi bilan asos solingan koloniya hisoblanadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Исаев С.А. У истоков американской истории. Санкт-Петербург Нестор-История 2018. С.7.

<https://journal-web.uz/>

**16-to'plam 1-son fevral 2025**

Virjiniya kompaniyasi koloniyachilari tomonidan asos solingan Jeymstaunda 2 ta kengash rahbarlik qilgan: ulardan biri koloniyada, ikkinchisi esa Londonda joylashgan. Ular metropolianing topshiriqlarini so'zsiz bajarishlari kerak bo'lган. Kengashning asosiy vazifasi kolonistlar manfaatlariga hizmat qilish o'rniga, kemadagilar bu hududda isquvarlik ishlarni olib borishlari, ya'ni oltin zaxiralarini izlash, tamaki yetishtirish kabi ishlarni bajarish bo'lган<sup>2</sup>.

Amerikaliklar nishonlaydigan 1776-yil 4-iyul sanasida Shimoliy Amerikadagi ingлиз koliniyalari o'zlarini mustaqil shtatlar deya e'lon qilishadi va Amerika Qo'shma Shtatlari nomi ostida birlashishadi<sup>3</sup>. Quyida Shimoliy Amerikada inglizlar tomonidan asos solingan koloniyalarni ularning asos solinish yillariga ko'ra tartib bilan keltirib o'tamiz.

### **Virjiniya (1607).**

**Yangi Plimut** (1620); 1692-yilda Massachusetts tarkibiga qo'shilgan. Bu koloniya shtat maqomiga ega bo'lмаган.

**Nyu-York.** Bo'lajak AQSh ning bu shtatiga gollondiyaliklar tomonidan 1624-yilda Yangi Niderlandiya koloniyasi sifatida asos solingan. 1664-yildan bu shtat Angliya hukmronligi ostiga o'tadi va Nyu-York koloniyasi deb atala boshlanadi.

### **Massachusetts (1628).**

### **Merilend (1634).**

### **Konnektikut (1637).**

**Delaver.** Bo'lajak AQShning ushbu shtatiga 1638-yilda shvedlarning Yangi Shvetsiya koloniyasi sifatida asos solinadi. 1655-yilda bu shtat gollandlar tomonidan istilo qilinadi va bir necha yil davomida Yangi Niderlandyaning bir qismi sifatida mavjud bo'ladi. 1664-yildan gersog York

---

<sup>2</sup> Слезкин Л.Ю. У истоков американской истории. Виргиния, Новый Плимут. 1606-1642. М., 1978. С.45.

<sup>3</sup> Исаев С.А. У истоков американской истории. Санкт-Петербург Нестор-История 2018. С.4.

boshqaruvidagi Angliya hukmronligi ostiga o'tadi. 1682-yildan Pensilvaniya tarkibiga qo'shiladi, 1701-yildan esa xartiyaga ko'ra Pensilvaniya gubernatorligi boshqaruvidagi alohida maqomga ega alohida koloniyaga aylanadi. Vaholanki, Delaver dastlabki 13 ta shtatlardan biri bo'lsada, bu shtat butkul Pensilvaniya tarkibidan koloniya sifatida emas, balki, 1776-yil sentyabr oyida alohida konstitutsiyani qabul qilgan holda AQShning shtatiga aylanadi.

**Nyu-Gempshir** (1638), 1679-yildan "qirollik dengiz orti provinsiyasi" ga aylanadi, 1692-yildan alohida provinsiyaga aylanadi.

**Nyu-Xeyven** (1638), 1662-yildan Konnektikut tarkibiga kiradi.

**Men** (1639). Bo'lajak Amerikaning ushbu shtatiga xususiy koloniya sifatida asos solingan bo'lib, qirol Karl I ning vassali ser Fernand Gorjesga tegishli bo'lgan. Ingliz revolyutsiyasi voqealari Men shtati maqomining jiddiy o'zgarishiga olib keladi. 1652-yilda Massachusetts puritanlari Men koloniyasini o'z tarkibiga qo'shib olishadi. Restavratsiyasidan so'ng Karl II bu anneksiyani noqonuniy deb tan oladi va 1664-yilda Men shtatini gersog York boshqaruvi tarkibiga qo'shadi. Biroq, 1680-yilda Men provinsiyasi yana Massachusetts tarkibidagi avtonomiyaga aylanadi. 1692-1820-yillarda esa "Men okrugi" Massachusetts tarkibidagi ma'muriy bo'lmasada, hududiy jihatdan avval koloniya, keyinroq esa shtatga aylanadi. Shunday tarzda, garchi Men shtati 1776-yillar chegarasida AQShning dastlabki hududiy tarkibiga kirsada, Men alohida shtat sifatida faqatgina 1820-yilda AQSh shtatlaridan biriga aylanadi.

**Rod-Aylend** 1640.

**Karolina** (1663) — 1670-yilgacha uning tarkibiga faqatgina hozirgi Shimoliy Karolina kirgan; Janubiya Karolina hududlari keyinroq o'zlashtirilgan.

**Nyu-Jersi** (1664). 1677-1702-yillarda ushbu koloniya G'arbiy Nyu-

Jersi hamda Sharqiy Nyu-Jersiga bo'lingan.

### **Pensilvaniya (1682).**

1711-yilda Karolina koloniyasi butunlay Shimoliy va **Janubiy Karolinaga** ajraladi.

**Jorjiya** (1733). Ikki birlashgan koloniya, ya'ni, Yangi Angliya Konfederatsiyasi hamda Yangi Angliya Dominioni birlashuvidan yuzaga kelgan shtat<sup>4</sup>.

Bu koloniylar Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakachiligining boshlanishini belgilagan. Dastlab iqtisodiy va diniy sabablarga ko'ra o'rnatilgan bo'lsada, keyinchalik ular mustamlaka siyosatining muhim markazlariga aylanishgan.

### **Xulosa.**

Yer sharida asos solingan barcha davlatlar o'zining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, shuningdek, ma'muriy va hududiy tarixiga egadir. Shu qatorda Amerika Qo'shma Shtatlari tarixi ham tarixchilarni o'zining boy o'tmishi bilan qiziqtiradi. Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki, 1607-yilda inglizlar tomonidan Virjiniya koloniyasiga asos solinishi bilan ushbu hududda Shimoliy Amerikada koloniylar tashkil etilish jarayonlarining jaddallahuviga keng yo'l ochib berdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1)Исаев С.А. У истоков американской истории. Санкт-Петербург Нестор-История 2018.
- 2)Слезкин Л.Ю. У истоков американской истории. Виргиния, Новый Плимут. 1606-1642. М., 1978.

---

<sup>4</sup> Исаев С.А. У истоков американской истории. Санкт-Петербург Нестор-История 2018. С.6.

<https://journal-web.uz/>

**16-to'plam 1-son fevral 2025**

- 3) Слёзкин Л.Ю. У истоков американской истории. Массачусетс, Мэриленд. 1630–1642. М.: Наука, 1980.
- 4) Слёзкин Л.Ю. У истоков американской истории. Виргиния и Мэриленд в годы английской революции 1642–1660. М.: Наука, 1989.
- 5) Слёзкин Л.Ю. У истоков американской истории. Роджер Уильямс. 1603–1683. М.: Наука, 1993.